

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduraxmonov	
Adabiy asardagi nuring xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
A.B.Kosimova	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabbilar.....	469
TILSHUNOSLIK	
M.Y.Mamajonov	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni	473
R.M.Shukurov, G.S.Jo'rabyeva	
Farg'ona viloyati toponomilarining sotsiolingvistik xususiyatlari.....	477
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida	483
F.X.Qosimova	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
A.A.Ergashev	
Etnotoponimlar tadqiqi	496
H.Sh.Radjabova	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
S.A.Jabborova	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
Sh.R.Amonturdiyeva	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari	511
D.I.Mirzayeva	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
X.F.Xaydarova	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
M.A.Hojiyeva	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
I.A.Egamberdiyeva	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi	527
D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'Ichov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
Z.Sh.Ashurova	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini	535
I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar.....	539
Z.M.Sobirova	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida	545
V.A.Vositov	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida	550
M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi	557
D.I.Khodjaeva	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari	562
O.M.Yusupova	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili	567
M.V.Nasridinov	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
M.O.Batirkhanova	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages	577
M.U.Mamadjanova	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics	582
M.V.Nasridinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili	586
M.Y.Madiyeva	

**KONVERGENSIYA VA UNING SINTAKTIK-STILISTIK FUNKSIYASI****КОНВЕРГЕНЦИЯ И ЕЕ СИНТАКСИКО-СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ****CONVERGENCE AND ITS SYNTAXIC-STYLISTIC FUNCTION****Abdupattoyev Muhammadtohir Tojimamatovich** 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori

Shodmonov Xolmatjon Po'latjon o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Maqolada tilshunoslikda konvergensiya nazariyasining yuzaga kelishi, badiiy yoki poetik nutq sintaktik-stilistik vositalarning sintaktik-stilistik figuralar bilan konvergensiya hosil qilishi va bunda nutq tarkibidagi stilistik o'zgarishlar hamda nutqning badiiy estetik funksiyasiga ta'siri masalalari, Glottogenik konvergensiyaning bir nechta tillarda (qarindosh yoki qarindosh bo'lmanan) oraliq tarkibiy xususiyatlarning (masalan, kelishiklarning) shakllanishi, struktur-diaxronik konvergensiya tarixiy jarayon bo'lib, ba'zi variatsion farqlarning yo'qolishi natijasida til tizimidagi xilma-xillikning pasayishini anglatishi, tilshunoslikda konvergensiya asos bo'luvchi substrat, superstrat va adstrat deb ataladigan chiziq (motiv)lar mavjudligi, konvergensiya atamasi ostida turli darajadagi sintaktik-stilistik vositalarning yagona stilistik maqsadning yuzaga chiqishi uchun ishlatalishi natijasida yuzaga kelgan murakkab stilistik usulni tushunish lozimligi, sintaktik-stilistik vositalarning o'zaro birgalikda qo'llanishi natijasida ular o'tasida konvergensiyaning xilma-xil ko'rinishlari yuzaga kelishi, o'zbek poetik nutqida faol qo'llanuvchi, eng muhim sintaktik-stilistik figura hisoblangan polisindetononda ham xuddi shunday xususiyat mavjudligi, Kuzatilgan til faktlarining tasdiqlashicha, polisindetonning poetik nutqda ko'proq struktural parallelizm, gradatsiya, antitezza, ritorik so'roq usullari bilan birga qo'llanishi natijasida konvergensiyaning turli ko'rinishlari hosil bo'lgishi natijasida poetik yoki badiiy nutqda badiiy-estetik funksiya va ta'siriylik va tasviriylik yuqori darajada ifoda etilishi haqidagi tadqiqot natijalari bayon etilgan.

Аннотация

В статье рассматривается возникновение в лингвистике теории конвергенции, сближение синтаксически-стилистических средств художественной или поэтической речи с синтаксически-стилистическими фигурами и стилистические изменения в структуре речи, а также влияние речи на художественно-эстетическую функцию речи. Речи, в статье рассматриваются промежуточные структурные признаки глottогонической конвергенции в нескольких языках (родственных или неродственных), формирование признаков (например, договоров), структурно-диахроническая конвергенция - исторический процесс, означающий уменьшение разнообразия. В языковой системе в результате утраты некоторых вариационных различий существует существование черт (мотивов), называемых субстратными, суперстратными и абстрактными, которые являются основой конвергенции в языкоznании, под термином конвергенция необходимо понимать сложную стилистическую структуру. метод, созданный в результате использования синтаксически-стилистических средств разного уровня для возникновения единой стилистической цели, возникновения различных форм сближения между ними в результате взаимного использования синтаксически-стилистических средств, важнейшего синтаксический - тот факт, что полисиндтон, который считается стилистической фигурой, имеет ту же особенность. Согласно наблюдаемым языковым фактам, использование полисиндтона в поэтической речи вместе с более структурным параллелизмом, градацией, антитезой и риторическими приемами вопросов приводят к формированию различных форм конвергенции, обуславливающих художественно-эстетическую функцию и эффективность поэтической или художественной речи, и представлены результаты исследования высокого уровня выразительности и образности.

Abstract

The article examines the emergence of the theory of convergence in linguistics, the convergence of syntactic-stylistic means of artistic or poetic speech with syntactic-stylistic figures and stylistic changes in the structure of speech, as well as the influence of speech on the artistic and aesthetic function of speech. speech, the article examines intermediate structural features of glottogenic convergence in several languages (related or unrelated), the formation of features (for example, contracts), structural-diachronic convergence - a historical process that means a decrease in diversity. In the linguistic system, as a result of the loss of some variational differences, there is the existence of features (motifs) called substratum, superstrate and abstract, which are the basis of convergence in linguistics; the term

convergence must be understood as a complex stylistic structure. a method created as a result of the use of syntactic-stylistic means of different levels for the emergence of a single stylistic goal, the emergence of various forms of rapprochement between them as a result of the mutual use of syntactic-stylistic means, the most important syntactic - the fact that polysyndeton, which is considered a stylistic figure, has the same peculiarity. According to the observed linguistic facts, the use of polysyndeton in poetic speech, together with more structural parallelism, gradation, antithesis and rhetorical devices of questions, leads to the formation of various forms of convergence, determining the artistic and aesthetic function and effectiveness of poetic or artistic speech, and the results of a study of a high level of expressiveness and imagery.

Kalit so'zlar: sintaktik-stilistik figura, konvergensiya, polisindeton, paradigmatica, sintagmatika, sintaktik figura, takror, uslubiy vosita, struktural parallelizm, alternativ so'roq, gradatsiya, antiteza.

Ключевые слова: синтаксико-стилистическая фигура, конвергенция, полисиндемон, парадигматика, синтагматика, синтаксическая фигура, повтор, стилистический прием, структурный параллелизм, альтернативный вопрос, градация, антимеза.

Key words: syntactic-stylistic figure, convergence, polysyndeton, paradigmatics, syntagmatics, syntactic figure, repetition, methodological device, structural parallelism, alternative question, gradation, antithesis.

KIRISH

Konvergensiya nazariyasiga ko'ra, tarixiy rivojlanish jarayonida lingvistik birliklarning yaqinlashishi yoki tasodifiy mosligi yuzaga keladi. Konvergensiya divergensianing teskarisi bo'lib, konseptual jihatdan u konvergent tilni rivojlantirish konsepsiyasiga to'g'ri keladi. Tillarning konvergensiysi, dialektlar orqali bir-biri bilan aloqaga kirishuvi, ikki yoki undan ortiq lingvistik hodisalarini birlashtirish demakdir Konvergensiya tushunchasi ikki shaklda o'rganiladi: glottogonik va struktur-diaxronik. Glottogonik konvergensiya uzoq asosida bir nechta tillarda (qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan) oraliq tarkibiy xususiyatlarning (masalan, kelishiklarning) shakllanishini nazarda tutadi. Struktur-diaxronik konvergensiya tarixiy jarayon bo'lib, ba'zi variatsion farqlarning yo'qolishi natijasida til tizimidagi xilma-xillikning pasayishini anglatadi. Fonologiya va grammatika tizimidagi konvergensiya bir-biriga o'xshashlik asosida amalga oshiriladi. Masalan, bunga omonim grammaatik shakllarning yo'qolishi, ularning faoliyat sistemasining pasayishi kiradi. Divergensiya konvergensiyaning teskarisi (lot. diverge-o'zgartirish, ajralish)-ikki yoki undan ortiq til hodisalarini bir-biridan ajratish demakdir. Divergensiya tushunchasi ham ikki kontekstda ko'rib chiqiladi: glottogonik va struktur-diaxronik. Glottogonik divergensiya ijtimoiy-tarixiy sharoitga qarab, qarindosh tillar yoki lahjalarning ajralishni anglatadi. Divergensiya jarayoni umumiyl bobo tildan ajralib chiqqan til oilalarining shakllanishidir. Strukturaviy-diaxronik divergensiya – bu til tizimidagi farqlarning, tafovutlarning ko'payishiga olib keladigan tarixiy jarayon. Divergensiya tushunchasi tilning barcha sohalariga taalluqlidir. Divergensiya til tabiatini belgilovchi xususiyatlarning cheklanishi (yo'qolishi) tufayli juda ko'p nokategorial til birliklarining mustaqil til birliklariga aylanishi ma'nosida ham tushuniladi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Konvergensiya, xususan, sintaktik-stilistik figuralar konvergensiysi masalalariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda har bir tadqiqotchi mazkur yo'nalishda sintaktik-stilistik figuralar haqida, ularning badiiy va poetik nutqni shakllantirish, bunday nutq turlarida badiiy-estetik ta'siriylikni ta'minlash bo'yicha turli mulohazalarni bildirib o'tgan bo'lalar-da, sintaktik-stilistik figuralarning doiraviy-arialish, ya'ni konvergension tartibda qo'llanishi bo'yicha yetarli ma'lumot berib o'tmaganlar.

Tilshunoslikda sintaktik-stilistik figuralar masalalariga bag'ishlangan ishlarda, jumladan, V.N.Malevannaya [1], N.S. Matorina [2], V. Riffaterre [3], M.YE.Obnorskaya [4], I.A. Soloveychik-Zilbershteyn [5], S.A.Kuzmenko [6], R.M.Shukurov [9], M.T.Abdupattoyev [10-12]larning ishlarida sintaktik-stilistik figuralarga yondashuv turli aspektlarda amalga oshirilgan. Shunga qaramay, bu turdag'i vositalar tadqiqini tilshunoslikda keyingi yillarda paydo bo'lgan zamонавиy yondashuvla va ilmiy-tadqiqot metodlari asosida ko'rib chiqish va baholash zarurati yuzaga keldi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Konvergensiya va divergensiya jarayonlarining o'zaro hamkorligi ko'pincha ma'lum bir tilning kelib chiqishi va til tarixining ma'lum bir bosqichlarida kuzatiladi. Bu o'zbek tilining kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyotida ham kuzatilgan bo'lib, o'zbek tili qadimgi turkiy tildan divergensiyalashish jarayonini boshidan kechirishi bilan bir qatorda, fors-tojik tillari bilan konvergensiya kirishdi. Buni hozirgi o'zbek tilida boshqa turkiy tillarda mavjud bo'lmagan "o"

TILSHUNOSLIK

tovushining mavjudligi, tilimizda be-, ba-, bo-, no- kabi old qo'shimchalarining faolligi va boshqa lisoniy xususiyatlar tasdiqlaydi.

Dastlab konvergensiya nazariyasi biologiyada vujudga keldi, keyinchalik ijtimoiy-siyosiy fanlar, iqtisodiyot sohasiga, keyinchalik esa gumanitar fanlarga ko'chirildi.

Biologiyada organizmlarning bir-biriga yaqin bo'limgan turlari evolyutsiyasi jarayonida xususiyatlarning bir-biriga yaqinlashishi, ularning o'xshash sharoitlarda va teng yo'naltirilgan tabiiy tanlanishda mavjud bo'lishi natijasida o'xshash tuzilishga ega bo'lishi konvergensiya deb yuritila boshladi. Konvergensiya natijasida turli organizmlarda bir xil funksiyani bajaradigan organlar o'xshash tuzilishga ega bo'ladi. Masalan, suzuvchi jonzotlar, sudralib yuruvchilar ixtiozavrlar va sute nimuvchilar delfinlarda evolyutsiya jarayonida tana shakli va old oyoqlari baliqlarning tana shakli va qanolari bilan yaqinlashtirilgan o'xshashlikka ega bo'lishi biologik konvegrensiyaga misol bo'la oladi.

Konvergensiya (lotincha convergo - yaqinlashish, ,birlashish, mos kelish) tilshunoslikda ikki yoki undan ortiq tillarning yoki ma'lum bir tildagi hodisa, usul va birliklarning yaqinlashishi birlashishi yoki mos kelishidir [2,23].

Tilshunoslikda konvergensiya atamasi birinchi marta nemis tilshunosi M. Riffater tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Konvergensiya – bu, ma'lum bir stilistik maqsadda ikki va undan ortiq sintaktik-stilistik vositalarning birgalikda qo'llanishi natijasida yuzaga yuzaga keluvchi nutq hodisasi" [3,17]. Ko'rindiki mazkur atamani tilshunos-olim tilshunoslikning sintaktik-stilistika sohasida qayd etgan.

Tilshunoslikda konvergensiya asos bo'luvchi substrat, superstrat va adstrat deb ataladigan chiziq (motiv)lar borligi qayd etiladi [4,51]. Substrat nazariyasi romanistikada keng tarqalgan bo'lib, bu nazariyaga ko'ra substrat konvergensiyasining mavjudligi lotin tilini turli darajada davom ettirgan yangi roman tillari o'rtasidagi tafovutlarni tushuntirishga harakat qiladi [5,45]. Faqat substratga nisbatan bu farqlarning turli tillarda qay darajada ekanligini ko'rsatish qiyinchilik tug'diradi. Chunki turli hududlarda Rim mustamlakasi turli tarixiy davrlarda o'rnatalgan, lotin tilining qo'llanish doirasi esa davrlar o'tishi bilan o'zgarib turgan.

Tillar konvergensiysi haqida gap ketganda, superstrat motivi ham mutaxassislar tomonidan tez-tez tilga olinadi. Bu tushuncha ostida kelgindi yoki bosqinchi aholi tilining mahalliy tillarga ta'siri-yaqinlashuvi e'tiborga olinadi. Bunga yorqin misol sifatida arab tilining Markaziy Osiyo tillariga ta'sirini, ya'ni bugungi kunda islam dinini qabul qilgan Markaziy Osiyo aholisi tillariga juda ko'plab arabcha so'zlearning o'zlashganini ko'rsatib o'tish kifoya qiladi.

Tilshunos-tadqiqotchilar tomonidan etnik aralashuv sodir etilmagan holda bir-biri bilan aralash yashab kelgan aholi tillarining bir-biriga nisbatan konvergension munosabati adstrat munosabat deb yuritiladi [6,22]. Bir-biri bilan uzoq davom etgan aloqa mavjud bo'lgan tillarda ajralib, farqlanib turadigan xususiyatlarni adstrat tarzida tushuniladi. Substrat va superstratdan farqli o'laroq, bu yerda etnik aralashuv rejalashtirilmaydi. Lekin bu holatlarning barchasida keng tarqalgan ommaviy ikki tillilik mavjud bo'ladi. Foydalilanayotgan tillarning funksiyalari kamdan-kam hollarda bir xil bo'ladi yoki bir sohada qo'llaniladi. Masalan, VII-V asrlarda turkiy tillarning rasmiy ish yuritish tili (davlatchilik til siyosati tufayli fors-tojik tili bilan almashinib turgan), fors-tojik tilining badiiy adabiyot tili, arab tilining ilm-fan tili tarzida faol bo'lganligini ham adstrat konvergensiya tarzida e'tirof etish mumkin.

M.Riffaterring yuqorida ta'rifi sababli konvergensiya hodisasining sintaktik-stilistik figuralarning yaqinlashuvi, bitta matn yoki nutq parchasida birgalikda qo'llanishiga nisbatan tatbiq etilishi ommalashdi. Natijada, konvergensiya deyilganda "bir stilistik maqsadni amalga oshirish uchun ikki va undan ortiq sintaktik-stilistik figuralarning birgalikda qo'llanishi" [7,41] tushunila boshlandi

Rus tilshunosi I.P.Moskvin konvergensiya atamasi ostida turli darajadagi sintaktik-stilistik vositalarning yagona stilistik maqsadning yuzaga chiqishi uchun ishlatalishi natijasida yuzaga kelgan murakkab stilistik usulni tushunish lozimligini ta'kidlaydi [8,103]. Keltirilgan har ikki ta'rifdan ko'rindiki, sintaktik-stilistik vositalarning o'zaro birgalikda qo'llanishi natijasida ular o'rtasida konvergensiya yuzaga keladi. Polisindetonda ham xuddi shunday xususiyat mavjud. Kuzatilgan til faktlari shuni tasdiqlaydiki, polisindetonning poetik nutqda ko'proq struktural parallelizm, gradatsiya, antiteza, ritorik so'roq usullari bilan birga qo'llanishi ko'proq kuzatiladi.

Polisindeton poetik nutqda sintaktik figuralarning shakllanishiga ham o'z hissasini qo'shadi. U, ayniqsa, anfora, struktural parallelizm, gradatsiya kabi figuralarning yuzaga chiqishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur figuralarning barchasi takror asosida shakllanadi. Polisindetonga asoslangan holda shakllanuvchi va poetik nutqda keng qo'llanuvchi eng mahsuldar figura struktural parallelizm hisoblanadi. Struktural parallelizm tarkibiga bir xil strukturada takrorlanuvchi so'z birikmali, predikativ birliklar, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi o'ramlaridan iborat birikmalar kiradi va ushbu figurani shakllantiradi. Parallelizm tamoyiliga asoslanib shakllangan birliklar uyushgan holda va vertikal ketma ketlikda o'rinalashib struktural parallelizm usulini namoyon etadi. Sintaktik parallelizm ikki va undan ortiq sintaktik qurilmalarning bir xil qolipda shakllanishiga va o'zaro aloqaga kirishiga asoslanadi. Bu munosabatlar fikriy izchillik va mantiqiyl ketma-ketlikni ta'minlaydi. Ular kontakt yoki distant holatda yuzaga chiqadi. Bu holat she'riy bandlar yoki poetik nutqning butun bir hajmi doirasida yuzaga chiqishi mumkin:

Goh muhandis ul, munajjim goh,

Goh o'zini tolib deb atar.

Goh muallim, goh sohib dastgoh...

Kasbi ko'pmi uning shu qadar? (E.Vohidov)

Berilgan misolda yuqoridaq nazariy fikrlar o'z tasdig'ini topgan. Ushbu misolda goh bog'lovchisining takrordanishi bilan matnda struktural parallelizm ham yuzaga kelgan, misoldagi Goh muhandis, Goh muallim, goh sohib dastgoh... satrlari polisindetonning struktural parallelizm usuli bilan birga qo'llanishi natijasida ular o'rtasida konvergensiya hodisasi yuzaga kelganligi kuzatiladi.

Polisindeton poetik nutqning yana bir sintaktik-stilistik vositasi hisoblangan alternativ so'roq bilan ham konvergensiya hosil qilishi mumkin.

Poetik nutqda so'roq gaplarning shunday turlari ham uchraydiki, bunday gaplarda so'zlovchi tomonidan tinglovchiga bir paytning o'zida ikkita bir-biriga yondosh savol beriladi. To'g'rirog'i, bunday gaplar so'zlovchi tomonidan ikki farazdan birini tinglovchiga tasdiqlatib olish maqsadida qo'llaniladi. Bu turdag'i gaplar tilshunoslikda alternativ (muqobil) so'roq gaplar, deb yuritiladi. Alternativ so'roq gaplarga xos eng asosiy xususiyat shuki, ularda aksariyat hollarda, bir-biriga zid keluvchi, bir-birini inkor etuvchi, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan harakat-holatlar haqida savol beriladi. Alternativ so'roq ko'rinishlari ham poetik nutqda ekspressivlikni oshirish, emotsiyonallik va ta'sirchanlikni kuchaytirish kabi stilistik maqsadlarda qo'llanadi. Alternativ so'roq poetik nutqda emotsiyal ekspressivlikni oshirish uchun xizmat qiladi. Bunda yo, yoki ayiruv bog'lovchilar so'roq ifodalangan narsa-hodisalarni ajratib ko'rsatish, alohida logik urg'u berish maqsadida qo'llaniladi. Shu bilan birga mazkur bog'lovchilarning alternativ so'roq gap tarkibida takrordanishi polisindeton va alternativ so'roqning konvergensiya hodisasini yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi:

Ayta olasizmi yurting dardini?

Azaliy odatni qilasizmi yo

Yalpi qo'l ko'tarib kelasizmi yo?

(E.Vohidov)

Ushbu misolda, yuqorida aytib o'tilganidek, polisindeton (yo bog'lovchisining takrordanishi) va alternativ so'roq (uchta muqobil so'roq)ning birgalikda qo'llanishi natijasida murakkab stilistik usul – konvergensiya yuzaga kelgan.

Konvergensiya tarkibida yana ham ko'proq qo'llanuvchi sintaktik-stilistik figuralardan biri struktural parallelizmdir. Ma'lumki, struktural parallelizm (yunoncha, parallelos – yonma-yon boruvchi) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi hisoblanadi. Struktural parallelizm poetik nutqning asosiy sintaktik-stilistik figuralaridan biri bo'lib, ta'siriyligini oshirish, ichki ritmni kuchaytirish maqsadida qo'llanadi. Struktural parallelizm o'zbek tilshunosligida R.M.Shukurov tomonidan monografik planda maxsus o'rganilgan [9,23]. Demak, struktural parallelizm o'zbek tilshunosligida lingvistik vosita yoki sintaktik-stilistik figura sifatida keng va atroficha tadqiq etilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, parallelizm poetik nutqning maxsus sintaktik-stilistik figurasi sifatida satrlarning teng urg'uli sintagmalarga bo'linishi, satrlardagi bo'laklarning parallel holda joylashuviga asoslanadi:

Zo'r shoir dilida zo'r umid yashar,

Ko'r shoir dilida ko'r umid yashar.

Har umid tuproqqa tashlangan dondek

TILSHUNOSLIK

Butun koinotdan nur kutib yashar. (X.Davron)

Keltirilgan misoldan ko'rinib turganidek, parchaning dastlabki ikki satrini tashkil etgan gaplar teng urg'uli sintagmalar asosida shakllangan va bir xil sintaktik qurilishga ega, ya'ni har ikki satr: *aniqlovchi+to'diruvchi+aniqlovchi+ega+kesim* tartibida kelgan.

Struktural parallelizmning eng birinchi poetik vazifasi ichki ritmni shakllantirishida ko'rindi:
Ko'ngil so'rab, ko'ngil buzdi do'stlarim.

Ko'nglim so'rab, ko'ngil uzdi do'stlarim. (Iqbol Mirzo)

Keltirilgan misol struktural parallelizmning poetik nutqni teng o'lchovli ritmda shakllantirishini yana bir bor tasdiqlaydi, ya'ni mazkur misolda har bir satrda struktural parallelizm vositasida uchtadan teng urg'uli sintagmalar shakllangan. Bundan tashqari, misolda sintaktik- stilistik figuralar konvergensiysi ham mavjud, diqqat qilinsa, unda eng mahsuldor sintaktik-stilistik figura hisoblangan takror ko'rinishlari ham kuzatiladi. Misolda sintiktik takror – ko'ngil so'ramoq birikmasining hamda leksik takror – ko'ngil, do'stlarim leksemalarining takrorlanishi yuzaga kelgan.

XULOSA

Umuman, sintaktik-stilistik figuralar konvergensiyasida, ko'rib o'tganimizdek, fikr dinamikasi tezlashadi, nutqning semantik maydoni kengayadi, nutqda ohangdorlik hosil qilinadi, sintaktik qurilmalarning qismlari o'zaro semantik va sintaktik uyg'unlikda birikadi, nutqning ichki ritmi va fonosemantikasi kuchayadi. Shu bilan birga, badiiy yoki poetik nutqdagi hissiy-ta'siriylig, obrazlilik, ekspressivlik yuqori darajaga ko'tariladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Малеванная В.Н. «Синтаксическая конвергенция в английской художественной прозе», Киев, 2022 – С 186 .
2. Маторина Н.С. «Информационный потенциал стилистической конвергенции (на материале англо-американской художественной прозы)», М., 2019. - С 198.
3. Riffaterre V. Criteria for Style Analysis // Word. – April 1959. №1. - P 15-18.
4. Обнорская М.Е. «Синтаксическая конвергенция // Стилистика романно – германских языков // материал семинара // Л., 2021. – С 76–86.
5. Соловейчик-Зильберштейн И. А. Стилистическая конвергенция в ранней прозе Бориса Пастернака. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2015. [электронный ресурс] URL.: <http://cheloveknauka.com/> (murojaat sanasi: 1.10.2023)
6. Кузьменко С.А. Лингвопрагматические свойства конвергенции стилистических средств: автореф. дис. ... канд. филол. наук / С.А.Кузьменко. – Ставрополь, 2006. – 24 с. [Электронный ресурс]. URL: <http://www.dissertcat.com/content/lingvopragmatische-svoistvakonvergentsii-stilisticheskikh-sredstv> (мурожаат санаси: 27.10.2023)
7. Арнольд И. В. Стилистика. Современный английский язык. М.: Флинта; Наука, 2002. 384 с.
8. Москвин В. П. Стилистика русского языка: Приёмы и средства выразительной и образной речи (общая классификация): Пособие для студентов. Волгоград: Учитель, 2020. – С 198.
9. Шукuroв Р.М. Параллел синтактик бутунликлар: Филол. фан. номз.. дис. автореф. – Фаргона, 2004. – Б 23.
10. Abdupattoev M.T.The role of occasional units ni the formation of the avtors's ideological stile. // INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY. IBAST | 2023. Volume 3, Issue 8, August P 186-190. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8278262>
11. Abdupattoev M.T.Functional Units of Poetic Speech. // Modern Journal of Social Sciences and Humanities. ISSN: 2795-4846 Volume 9 (Oct-2022) P 50-54.
12. Abdupattoev M.T. The problem of the avtor's idiosyncrasies in the poetic syntax. // EPRA International Journal of Multidisciplinary research. Volume – 7. Issue – 5. May 2021. Page: 571-574. DOI URL: <https://doi.org/10.36743/epra.2013>.